

QIZ BOLALAR JAKETINI MODELLASHTIRISH VA ANDOZASINI TAYYORLASH.

Nazarova Gulshoda Nasriddinovna

*Jizzax shahar Sharof Rashidov tumani 15-umumiy o'rta ta'lim
maktabi texnologiya fani o'qituvchisi.*

Darsning maqsadi va vazifalari:

- Ta'limiy:** O'quvchilarga qiz bolalar jaketini modelini tanlash, jaket uchun o'lcham olish, asos va yeng chizmasini chizish haqida ma'lumot berish.
- Tarbiyaviy:** O'quvchilarga qiz bolalar jaketi modelini yaratishda asos va yeng chizmasida model chiziqlarini chizish usullarini o'rgatish va ularda badiiy va estetik didni shakillantirish.
- Dars turi:** Yangi bilim beruvchi, amaliy ish usuli.
- Dars metod:** "Rolli o'yin" metodi, illyustratsiya metodi, guruhlarda ishlash, "O'yla, izla, top" o'yini tarqatma materiallar, test.
- Dars jihozi:** Tikuvchilik o'quv ustaxonasi, maniken, bichish stoli, texnologik harita, chizg'ich, ranli qalam, qaychi, sm lenta.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish.
2. Davomatni tekshirish.
3. Texnika xavfsizligi bilan tanishtirish.
4. Tozalikka e'tibor berish.
5. Yangi mavzuni e'lon qilish.
6. Vazifalarini tushuntirish. Bajariladigan ishlar ketma-ketligi bilan tanishtirish.

O'tgan mavzuni e'lon qilish. O'quvchilar nazariy bilimlarini tekshirish uchun o'qituvchi tomonidan kartochka savollar tarqatiladi.

Savollar:

1. 44-razmer uchun asosiy o'lchovlar?
2. Jaketni to'r qismini loyihalash?
3. Ort bo'lakni loyihalash?

4. Old bo'lakni loyihalash?
5. O'rta vitochkani o'rnatish?
6. ort vitochkani o'rnatish?
7. Old vitochkani o'rnatish?
8. Jaket yengini loyialash?
9. Yoqani loyihalash?

O'quvchilar savol kartochkani oladilar, savollar bilan tanishadilar va savollarga doskada asos chizma chizib javob beradilar, har bir savollarga chizma va vitochka chizib javob berishadi.

1- O'quvchi: Jaketni tor qismini loyihalaydi.

2- O'quvchi: Ort bo'lakni loyihalaydi.

3- O'quvchi: Old bo'lakni loyihalaydi.



4- O'quvchi: O'rta vitochkani o'natadi.

5- O'quvchi: O'rqa vitochkani o'natadi.

6- O'quvchi: Old vitochkani o'natadi.

7- O'quvchi: Jaket yengini loyihalaydi.

8- O'quvchi: Yoqani loyihalaydi.



Yangi mavzu bayoni

Mavzu: Qiz bolalar jaketini modellashtirish va andozasini tayyorlash.

Jaket vitochkanilarni ko'chirilishi turli modellar misolida ko'rsatiladi. Yangi mavzuni bayon qilishda "Rolli o'yin" metodidan foydalaniladi. O'quvchilar rollarga bo'linadi va namoyish qiladi.


Rollarda: -o'uvchilar ustlariga turli fasondagi jaketlar kiyib namoyish qilishadi.

-modeliyer dizayner(tikiuvchi)

-buyurtmachi

Biz tanlagan model:

Jaketning old ko‘rinishi




Jaketning orqa ko‘rinishi

“Rolli o‘yin” namoyishi ko‘rsatilib bo‘lingandan so‘ng o‘qituvchi yani mavzuni bayon qiladi. Slayd orqali. Shunday kiyimlar borki, inson didi, talablari, qiziqishlari, odatlarining o‘zgarishiga qaramay ular ma‘lum ma‘noda uzgarishsiz qolaveradi. Mumtoz modaga taaluqli va xatto ba‘zan mumtoz moda deb ataluvchi Engliz kostyumi ham ana shunday kiyimlardandir. Umumjamoatchilik uni hamisha ajoyib, zo‘r, o‘rnak bo‘ladigan deb hisoblayveradi. Fransuz modelyiri Gabriell Shanel taklif etgan “ayollar kostyumi va kichkina qora ko‘ylak” ham shunday kiyimlar qatoriga kiradi. Mumtoz kiyim pishqlik, estetik tarafdin to‘kis, o‘ktam va mukammal bo‘lgani uchun kiyim modasida uzoq yashaydi. XX asrda Gabriell Shanel tomonidan yaratilgan bu-ixcham kostyum va ko‘ylak soddalikni, xizmatboblikni, bemalollikni, o‘z prensipi deb e‘lon qildi. Bu kotyum ayollar gavdasini korset, krinolin va shunga o‘xshash sun‘iy narsalardan batamom ozod qildi va ayol kishining ijtimoiy siyosiy hayotda va ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashuvchi shaxs sifatida gavdalantirdi. XXE asrda ya‘ni hozirgi davrimizda ham faol ayollarimizni shu kostyumda ko‘ryapmiz. Modellashtirish tikuvchilik sanoatining, tikuv buyumlar tayyorlashning muxim qismi hisoblanadi. Modellashtirish so‘zi “model” fransuz so‘zidan olingan bo‘lib shakl degan ma‘noni bildiradi. Modellashtirish shakl o‘zgartishdir. Tikuv buyumlarini loyihalashda, kiyimning asosiy andozasi tayyorlanib, ma‘lum bir fason bo‘yicha kiyim tikishda, shu


asosiy andozaning shaklini shu fason bo'yicha o'zgartirishga to'g'ri keladi. Natijada kerakli fason formulasi kelib chiqishi kerak. Bu modellashtirish jarayoni deyiladi. Kiyimni loyihalash va modellashtirish jarayonida kiyim erkinligini hisobga olib texnik va dekarativ qo'shimchalar kiritiladi.

Qiz bolalar jaketini modellashtirish va andozasini tayyorlashda jaket uzunligi 65 sm olinadi, old bo'lak o'rta chizig'dan 2.5-3.0 sm taqilma kengligi chiziladi. Yon qirqimga ko'krak vitochka chizig'i belgilanadi. Belgilangan chiziqni ko'krak uchi nuqtasi bilan birlashtiriladi. Yelka vitochkasini yon qirqimidagi chiziqqa ko'chiriladi. Etak qirqimidan 15 sm yuqorida model chiziq o'tkaziladi.

Biz tanlagan qiz bolalar jaketi sun'iy sidirg'a matodan bo'lib, sal yopishib turadigan formali. Tik yoqali. Old bo'lakka bir qator tugma qadaladi, yenggi o'tqazma, uzun, uchi yopiq qirqimli, shletsa manjitli. Jaket etak qismi ikki yon qirqimidan bo'ksa chiziq qirqimigacha ochiq qirqimli, chap ko'krak qismida listoshkali qirqma cho'ntak o'rnatilgan. Jaket yoqa manjetini va bo'ksa chizig'idan kesilgan etak qismi listochkasining asosiy gazlama rangi bilan uyg'unlashgan rangdagi gazlama bilan tiksa ham bo'adi.



Ort bo'lakni modellashtirish



Old bo'lakni modellashtirish

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Amaliy ish usuli illyustratsiya metodidan foydalaniladi. O'quvchilarga oldindan taxlab qo'yilgan papkalar tarqatiladi. O'quvchilar 4 guruhga bo'lingan. Papkani ichida 4 ta fasondagi jaket modellari, asos chizma va mato bor, o'quvchilar asos chizmaga model chizg`ini kiritib modellashtiradilar va andoza tayyorlaydilar, tayyorlagan andozasini gazlama ustiga qo'yib bichadilar va tikadilar.

Yangi mavzu amaliy ish usuli va illyustratsiya metodi asosida mustahkamlanadi.

O'quvchilarni baholash, ishlarini tashkil qilish va yakunlash.

Har bir guruh o'quvchilari dars davomida bajargan ishlaridagi yutuq va kamchiliklar ko'rsatiladi, dars davomida to'plagan ballari hisoblanadi, baholar e'lon qilinadi g'olib guruh aniqlanadi.

Uyga vazifa: *Yangi modeldagi jaket eskizini chizib kelish.*